

***Quyí Zarafshon landshaftlarini muhofaza qilishning  
geoekologik muammolari  
(O`rtacho`l vohasi misolida)***

***Nurova D.R. NavDPI IV-bosqich talabasi. Ilmiy rahbar  
dots. YU.B. Raxmatov***

Quyí Zarafshonda xususan O`rtacho`l vohasi hududida antropogen landshaftlar keng tarqalgan bo`lib, ularning asosiy qismini voha landshaftlari tashkil etadi. Voha landshaftlari tabiat olamining muayyan tarkibiy qismi bo`lib, ularni muhofaza qilish, mahsuldorligini saqlab qolish, insoniyat manfaatlarini ko`zlab kelajak avlod uchun avaylab-asrash va ulardan oqilona foydalanish hozirgi kunning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Vohalar o`zini-o`zi tozalaydigan va boshqaradigan tabiiy geosistemalardan farq qilib, ular inson tomonidan tashkil etiladigan va muntazam ravishda boshqarib turiladigan madaniy landshaftlar hisoblanadi. Vohalarning tarkibiy tuzilishi foydalanish nuqtai nazardan biror maqsadga muvofiq yo`naltirilgan va bir necha asrlar davomida inson xo`jalik faoliyati natijasida bunyod etilgan suforiladigan landshaftlardan, shahar va qishloq seliteb landshaftlardan, irrigatsion va cho`l landshaftlardan tarkib topgan.

Antropogen landshaftlar Zarafshon daryosining qadimgi O`rtacho`l vohasi o`zanlarida Amu-Buxoro-1, Amu-Buxoro-II hamda Qiziltepa mashina kanallari atroflaridagi yangi o`zlashtirilgan massivlaridagi (Akbar Muqimov, Zafarbek orzusi, Axadbobo, Koinot, Maxmud, Kosimota) hozirgi zamon allyuvial yotqiziqlarda yaxshi o`z aksini topgan. Ayniqsa, Zarafshon daryosining o`rta oqimi qadimgi hududidagi voha landshaftlari hududning shimoliy-sharq tomonida Momojurg`oti platosidan chiqqan joyda shakllangan. Ostonbobo, Davron Niyoz massividan boshlanib, janubi-ʔarbda qo`shni Samarqand viloyatining Paxtachi (oldingi Narpay) tumaniga qarashli Karnab tumani, Amu-Buxoro kanalining o`ng sohillari bo`ylab Qiziltepa platosigacha uzluksiz davom etib boradi

Antropogen landshaftlarning, ayniqsa voha landshaftlarining xarakterli xususiyatlaridan biri ularning yuza qismida irrigatsion to`rning nihoyatda zich joylashganligidir. Irrigatsion turning asosiy morfologik elementlarini qadimgi daryo o`zanlari, magistral kanallar, ariqlar, zovurlar va kollektorlar tashkil etadi. Irrigatsion to`r yifindisi voha landshaftlariga o`ziga xos texnogen elementlar baxsh etib, ularning morfologik tarkibidagi elementlarni murakkablashtiradi.

Qadimdan Zarafshon daryosi ta`sirida barpo etilgan va keyinchalik magistral kanallar yordamida kengaytirilgan irrigatsion to`r O`rtacho`l vohasini vujudga kelishida, shakllanishida va O`rtacho`l vohasi landshaftlarining eng yirik irrigatsion tizimlaridan biri Amu-Buxoro-1, Amu-Buxoro-II mashina kanallari bo`lib, u Momojurg`oti platosi yonidan boshlanib, Yomonjar, Moxandaryo, Koinot, Davron Niyoz, Ostonbobo, Qiziltepa irrigatsion tizimlarini o`z ichiga oladi. Bu irrigatsion kanallar tizimi O`rtacho`l vohasini to`liq suv bilan ta`minlaydi. Bugungi kunda inson xo`jalik faoliyatining tabiatga ta`sir ko`rsatkich darajasi aholi sonining regional va global darajasida o`sishi, sanoat korxonalarining rivojlanishi va fan texnika taraqqiyoti bilan bevosita bo`g`liq holda ortib bormoqda.

Qorako`l vohasida asrlar davomida bunyod etilgan landshaftlarni muhofaza qilish keng ma`nodagi tushuncha bo`lib, u kompleks tadbirlar majmuasidan iboratdir. Bu murakkab tizim tabiatni insoniyat tomonidan vaho

landshaftlarini ko`zlab hozirgi va kelajak avlod uchun saqlash, uni oqilona va maqsadga muvofiq o`zgartirish, foydalanishga yaroqsiz erlarini rekultivatsiya qilish, tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish, atmosfera havosini, er osti va usti suvlarining ifloslanishining oldini olish, atrof-muhitni ekologik muvozanatini tiklash, agrolandshaftlarning maxsuldorligini saqlash va samaradorligini oshirish, ekin maydonlarini nitratlar, pestitsidlar va gerbitsidlar bilan zaharlanishiga yo`l qo`ymaslik, geosistema va ekosistemalarning degradatsiyalanish jarayonini optimalashtirish, suforiladigan erlarda yuz berayotgan tuproq eroziyasiga va tuproqlarning qayta sho`rlanishiga qarshi kurashish, geosistemalardan tabiat qonunlarini hisobga olgan holda oqilona foydalanishi kabi tadbirlar majmuasidan tarkib topgan (Abdulqosimov, 2003).

Hozirgi kunda er yuzida yashayotgan barcha aholi, jumladan Quyi Zarafshon vodiysida istiqomat qilayotgan aholi ham ekologik tanglik keskinlashib va rivojlanib borayotgan davrda hayot kechirmoqda. Tabiatda geoekologik taraqqiyot davomida shakllangan geoekologik muvozanatni antropogen omil taʼsirida buzilishini va buning oqibatida ekologik tanglikni vujudga kelishi hozirgi vaqtda barcha mutaxassislar tomonidan tan olinmoqda.

Bu asosan aholining tez surʼatlar bilan ko`payishi, sanoat tarmoqlari va avtotransport vositalarining rivojlanishi hamda ishlab chiqarishning barcha turlarini antropogen geosistemalar doirasida tarkib topishi atrof-muhitni kuchli ifloslanishiga, geoekologik tanglikni vujudga kelishiga sharoit yaratdi. Bunday keskinlashib borayotgan geoekologik vaziyat tabiat muhofaza qilish tadbirlarini izchillik bilan amalga oshirish zarurligini taqozo etadi. Buning uchun voha landshaftlarini muhofaza qilish, ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan chora-tadbirlarni dasturini ishlab chiqish, uni izchillik bilan amaliyotda qo`llash mexanizmini tashkil etish va boshqarish, suforiladigan agrokomplekslarning maxsuldorligini oshirishda katta ijobiy ahamiyat kasb etadi.

Agrolandshaftlarini muhofaza qilishni yo`lga qo`yish bo`yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlarni O.Abdullaev va Z.Toshmatovlarning (1992) ishlarida ko`rish mumkin. Bular agrolandshaftlarni muhofaza qilishga qaratilgan tadbirlarni shartli ravishda ikki guruhga bo`lishadi. Birinchi guruhga inson xo`jalik faoliyati taʼsirida mumkin bo`lgan salbiy taʼsirni oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar, ikkinchi guruhga esa antropogen omil taʼsirida vujudga kelgan geoekologik vaziyatlarni, sodir bo`lgan oqibatlarni bartaraf qilishga yo`naltirilgan chora-tadbirlardir. Bu ikkala guruhga taaluqli chora-tadbirlarning har biri texnikaviy, iqtisodiy-ijtimoiy, axloqiy, huquqiy va hakoza yo`nalishlariga ega. Masalan, Qorako`l delʼtasidagi tashkil etilgan Qorako`l cho`l qo`riqxonasi, Zarafshon daryosi o`zanidagi tashkil etilgan Zamonbobo qo`riqxonasi, Amu-Buxoro mashina kanali bo`yidagi to`qayzorlar, sunʼiy ko`llar, o`zlashtirilgan yangi erlar landshaft geokomplekslarini muhofaza qilishda roli kattadir. Qorako`l, Zamonbobo qo`riqxonalarida Buxoro buʼfusi-xongulni ko`paytirish va maxalliy sharoitga moslashtirish borasida ilmiy ishlar olib borilmoqda. Qorako`l vohasi o`rnida vujudga kelgan shahar seliteb landshaftlarini va ularning morfologik tarkibini tadqiq etishda antropogen geokomplekslarning xillarini va yoshini aniqlashda asosiy joy bo`lib xizmat qiladi.